

Guliston maktabgacha ta'lim va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji biologiya fanidan I bosqich o'quvchilardan olinadigan yakuniy nazorat test savollari

I Variant

1. Biologiya so'zining ma'nosi

- A. Fransuzcha bios - hayot, logos- fan B. Yunoncha bios - hayot, logos - fan
C. Ingizcha bio-hayot, logiya-fan D. To'g'ri javob berilmagan

2. Organizmlar genlari yoki genlar majmuasining faoliyatini inson manfaatlarini ko'zlagan holda o'zgartirilishiga nima deb ataladi?

- A. Gen injeneriyasi C. Degeniratsiya
B. O'zgaruvchanlik D. Oziq zanjiri

3. «Xonakilashtirilgan hayvon, madaniy o'simliklarning o'zgaruvchanligi» - asarini qaysi olim nashr ettirgan?

- A. L.Psater C. Al Buxoriy
B. J.B.Lamark D. Ch.Darvin

4. Tur mezonlari nechta?

- A. 4 ta C. 6 ta
B. 5 ta D. 7 ta

5. Evolutsiyaning boshlang'ich birligi bo'lib _____ sanaladi.

- A. Mutatsiya C. Tur mezonlari
B. Populyatsiya D. Gen

6. Yirik daryolar, baland tog'lar va boshqa to'siqlar orqali ro'y beradigan alohidalanish bu - ?

- A. Biologik alohidalanish C. Geografik alohidalanish
B. Ekologik alohidalanish D. Etiologik alohidalanish

7. _____ deyilganda bajaradigan funksiyasi jihatidan o'xshash, ammo kelib chiqishi jihatidan har xil organlar tushuniladi.

- A. Anologik organlar C. Gomologik organlar
B. Fiziologik organlar D. Rudiment organlar

8. Qaysi nazariya hayotning boshqa sayyoralaridan Yerga kelib tarqalganligini ta'kidlaydi?

- A. Kreatsionizm; C. Panspermiya;
B. Biokimyoviy evolutsiya; D. Kreatsionizm va panspermiya;

9. L. Paster kashfiyotining amaliyotda qo'llanilishi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Ozuqalarni konservatsiyalash; C. Yaralarni sterilizatsiyalash;
B. Sut mahsulotlarini qaynatib, pasterizatsiyalash; D. Hamma javoblar bir-birini to'ldiradi.

10. Organizmlarning muayyan yashash sharoitiga moslashuvi nima deb ataladi?

- A. Degeniratsiya C. Idioadaptatsiya
B. Regeneratsiya D. Moslashish

11. 2000 mln yil davom etgan era qaysi?

- A. Arxey C. Kaynazoy
B. Proterozoy D. Toshko'mir

12. Arxeopterikslar qaysi davrda paydo bo'lgan?

- A. Yura C. Uchlamchi
B. Arxey D. Bor

13. Tuzilishiga ko'ra turli sinf belgilarini o'zida birlashtirgan organizmlar nima deyiladi?

- A. Oraliq formalar C. Degeniratsiya
B. Moslashish D. Tur mezonlari

14. «Ekologiya» tushunchasini fanga birinchi bo'lib qaysi olim kiritgan?

- A. F. Redi C. E. Gekkel
B. L. paster D. Ch. Darwin

15. Ayrim bir turga mansub bo'lgan organizmlar yoki populyatsiyalarning o'zaro va muhit bilan munosabatlarini o'rganadigan bo'lim qaysi?

- A. Sitologiya
- B. Sinekologiya
- C. Tarixiy ekologiya
- D. Autekologiya

16. O'ziga xos ko'rinishga va o'simliklar dunyosiga ega bo'lgan yirik regional yoki subkontinental biosistemalar nima deb ataladi?

- A. Ekotop
- B. Biomlar
- C. Biogeotsenoz
- D. Ekologiya

17. Qaysi omillarga — anorganik tabiat sharoitining yig'indisi, bularga tuproq, iqlim, topografik va boshqa fizik omillar kiradi deyiladi?

- A. Abiotik omillar
- B. Biotik omillar
- C. Antropogen omillar
- D. To'g'ri javob berilmagan

18. Sovuq qonlilarga qaysi organizmlar kiradi kiradi?

- A. Umurtqasizlar, baliqlar, sutemizuvchilar
- B. Baliqlar, suvda hamda quruqlikda yashovchilar, qushlar, xashorotlar
- C. Umurtqasizlar, baliqlar, suvda hamda quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar
- D. Suvda hamda quruqlikda yashovchilar, sutemizuvchilar, umurtqasizlar, baliqlar

19. O'simlik va hayvonlarning o'sishi va rivojlanishi kun uzunligiga bog'liqdir. Bu hodisa nima deyiladi?

- A. Fotosintez
- B. Fotoperiodizm
- C. Abiotik omil
- D. Biotik omil

20. Organizmlarning o'zaro munosabatlarini asosan necha turga ajratish mumkin?

- A. 3 ta
- B. 4 ta
- C. 5 ta
- D. 6 ta

21. -ma'lum maydon yoki hajm birligida individlar soni yoki biomassa bilan o'lchanadi.

- A. Populyatsiyaning to'liqlini
- B. Populyatsiyaning massasi
- C. Populyatsiyaning o'lchami
- D. Populyatsiyaning zichligi

22. Xalqaro «Qizil kitob» qachon nashr etildi?

- A. 1971-yil
- B. 1966-yil
- C. 1968-yil
- D. 1988-yil

23. Biogeotsenoz tushunchasi 1940-yilda qaysi olim tomonidan taklif qilingan.

- A. V. N. Sukachev
- B. J. B. Lamark
- C. Ch. Darwin
- D. F. Redi

24. Eng katta ekosistema qaysi?

- A. Tabiat
- B. Ekologiya
- C. Gidrosfera
- D. Biosfera

25. Hayotning hujayrasiz shaklini nimalar tashkil etadi?

- A. Bir hujayrali yashil suvo'tlari
- B. Ko'k-yashil suvo'tlari
- C. Bakteriyalar
- D. Viruslar

Tuzuvchi biologiya fani o'qituvchisi: _____ Mamatov Oybek
_____.____.2012y.

II Variant

1. Bir molekula oqsilning biologik sinteziga javobgar bo'lgan, DNK zanjiridagi nukleotidlar qatori nima deb ataladi?

- A. Irsiyat
- B. Molekula
- C. Gen
- D. Hamma javob to'g'ri

2. 1859-yili «Turlarning paydo bo'lishi» degan asarni qaysi olim nashr ettirdi.

- A. Ch. Darvin
- B. J.B.Lamark
- C. Al Buxoriy
- D. L. Paster

3. Turga mos belgi-xossalari yig'indisi nima deb ataladi?

- A. Yashash uchun kurash
- B. Tur belgilari
- C. Tur mezonlari
- D. Populyatsiya

4. <Bir turga kiruvchi individlarning tashqi va ichki tomonidan o'xshashligini ifodalaydi> - ushbu ta'rif qaysi tur mezon uchun xos?

- A. Fiziologik mezon
- B. Biokimyoviy mezon.
- C. Geografik mezon.
- D. Morfologik mezon.

5. Evolutsiyaning boshlang'ich materiali _____ hisoblanadi.

- A. Populyatsiya to'liqini.
- B. Mutatsion va kombinativ o'zgaruvchanlik
- C. Rekombinant DNK
- D. To'g'ri javob berilmagan

6. Bajaradigan funksiyasidan qat'i nazar, tuzilishi va kelib chiqishi jihatidan bir-biriga o'xshash organlar qanday organlar deb ataladi.

- A. Anologik organlar
- B. Fiziologik organlar
- C. Gomologik organlar
- D. Rudiment organlar

7. Qaysi fan qazilma holdagi o'simliklar, hayvonlar, zamburug'lar va boshqa organizmlar to'g'risidagi fan xisoblanadi?

- A. Sitologiya
- B. Fiziologiya
- C. Embriologiya
- D. Paleontologiya

8. F. Redi va L. Paster tajribalari qaysi nazariyaning noto'g'riligini ko'rsatib berdi?

- A. Kreatsionizm
- B. Biokimyoviy evolutsiya;
- C. Panspermiya
- D. Hayotning o'z-o'zidan paydo bo'lishi

9. Panspermiya nazariyasining tarafdorlari qaysi javoblarda ko'rsatilgan?

- A. S. Arrenius;
- B. F. Krik;
- C. Aristotel;
- D. A va B javoblar to'g'ri.

10. 900 mln yil davom etgan era qaysi

- A. Arxey
- B. Mezazoy
- C. Kaynazoy
- D. Toshko'mir

11. Mezazoy erasi davrlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Ordovik, silur
- B. Uchlamchi, to'rtlamchi
- C. Trias, yura, bor
- D. Yura, bor, uchlamchi

12. Quruqlikda sudralib yuruvchilarning xilma-xilligi ortib, ularning keyingi oyoqlari oldingisiga nisbatan kuchli rivojlangan davr qaysi?

- A. Bor
- B. Trias
- C. Ordovik
- D. Silur

13. Mezozoy — so'zining ma'nosi?

- A. Yunoncha mesos-so'nggi, zoe-hayot
- B. Yunoncha meza-oraliq, zo'y-davr
- C. Inglzcha mesos — o'rta, zoe — hayot
- D. Yunoncha mesos — o'rta, zoe — hayot

14. Ekologiya fani quyidagi asosiy bo'limlardan tashkil topadi:

- A. Autekologiya.
- B. Evolutsion ekologiya.
- C. Sinekologiya.
- D. Xamma javob to'g'ri

15. Har xil turga mansub organizmlar umumlashmasining o‘zaro va muhit bilan munosabatlarini o‘rganadigan bo‘lim qaysi?

- A. Sitologiya
- B. Sinekologiya
- C. Tarixiy ekologiya
- D. Autekologiya

16. Tirik organizmlarga ta’sir ko‘rsatuvchi muhitning har qanday tarkibiy qismlari nima deyiladi?

- A. Ekotop
- B. Biomlar
- C. Biogeotsenoz
- D. Ekologik omillar

17. Qaysi omillarga tirik tabiat omillari (tirik organizmlarning bir-biriga va yashash muhitiga ta’siri) kiradi.

- A. Abiotik omillar
- B. Biotik omillar
- C. Antropogen omillar
- D. To‘g‘ri javob berilmagan

18. Issiq qonlilarga qaysi organizmlar kiradi?

- A. Umirtqasizlar, baliqlar
- B. Baliqlar, suvda hamda quruqlikda yashovchilar
- C. Qushlar va sutemizuvchilar
- D. Suvda hamda quruqlikda yashovchilar, sutemizuvchilar

19. Biologik jarayonlar jadalligining davriy takrorlanuvchi o‘zgarishi nima deb ataladi?

- A. Biologik soatlar
- B. Biologik jarayonlar
- C. Biologik davrlar
- D. Biologik ritmlar

20. Antibioz - antogonizm, salbiy bog‘lanish bo‘lib, ularni necha shaklga ajratish mumkin

- A. 3 ta
- B. 4 ta
- C. 5 ta
- D. 6 ta

21. Yashash muhitida turga ta’sir ko‘rsatuvchi hamma ekologik omillar yig‘indisi nima deb ataladi?

- A. Ekologik turning hosil bo‘lishi
- B. Ekologik muhit
- C. Ekologik mezon
- D. Ekologik ritmlar

22. O‘zbekiston Respublikasining «Qizil kitob»i 2 jildda nashr etilgan bu qaysi yillar?

- A. 1985-1986-yil
- B. 1983-1984-yil
- C. 1984-1985-yil
- D. 1985-1986-yil

23. Bir-biri bilan va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan organizmlarning populyatsiyalari nima deb ataladi?

- A. Muhit
- B. Biosfera
- C. Biogeotsenozlar
- D. Abiotik omillar

24. Ekosistema tushunchasi fanga 1935-yilda qaysi olim tomonidan kiritilgan.

- A. Ch.Darvin
- B. J.B.Lamark
- C. K.Liney
- D. A.Tensli

25. _____ autotrof organizmlar bo‘lib, quruqlikdagi va suvdagi yashil o‘simliklar hisoblanadi

- A. Produsentlar
- B. Redutsentlar
- C. Oziq zanjirlari
- D. Xamasi to‘g‘ri

Tuzuvchi biologiya fani o‘qituvchisi: _____ Mamatov Oybek
Oybek.mamatov.1988@mail.ru